"YASHIL" XIZMAT KO'RSATISH MODELINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI IQTISODIY O'SISHNI RAG'BATLANTIRISH: SOLIQ SIYOSATI VA DAVLAT BOSHQARUVI JIHATIDAN TAHLIL.....	1333
Haqnazarova Yulduz Juraqulovna	
ТРАНСПОРТНАЯ ДОСТУПНОСТЬ В КАРАКАЛПАКСТАНЕ: ПРОСТРАНСТВЕННЫЙ АНАЛИЗ И СРАВНИТЕЛЬНАЯ ОЦЕНКА РАЙОНОВ	1339
Кеунимжаев Мухамедали Куанышбаевич	
TRANSPORT INFRATUZILMASI RIVOJLANISHINING HUDUDLARARO IQTISODIY TENGSIZLIKNI KAMAYTIRISHDAGI ROLI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR	1344
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
XUFYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHNING ILMIY TADQIQOTLARDAGI TALQININING ILMIY TAHLILI.....	1350
Ro'ziqulov Shunqor Tohir o'g'li	
BANKLARNING QO'SHILISH VA QO'SHIB OLIH OPERATSIYALARINING MOLIVAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI	1356
Azlarova Aziza Axrarovna, Sattorova Nasiba G'anijon qizi	
RAQAMLASHTIRISH ORQALI BARQAROR IQTISODIY O'SISH VA RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI	1361
Umurzak Ablakulovich Radjabov	



ISHLAB CHIQARADIGAN SANOATNING IQTISODIYOTDAGI TUTGAN O'RNI, AHAMIYATI VA UNING TASNIFLANISHI	1366
Mallaboyev Anvarjon Sotvoldiyevich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA SUVDAN FOYDALANISH VA SUV ISTE'MOLI TARTIBINI AMALGA OSHIRISH.....	1374
Matkarimov Mansur Maksudovich	
DEVELOPMENT OF HERITAGE-BASED EXCURSION ACTIVITIES IN THE BUKHARA REGION	1379
Murodjonov Bahrombek Gulomaliyevich, Istamkhuj Olimovich Davronov, Radjabov Odil Olimovich	
TRANSPORT TURLARI FAOLIYATINI BIRLASHTIRISH ORQALI XIZMAT KO'RSATISH SIFATINI OSHIRISH.....	1385
Giyosidinov Boburbek Baxtiyor o'g'li	
TEMIR YO'L TRANSPORTI RIVOJLANISHIGA HISSA QO'SHGAN OLIMLARNING ILMIY QARASHLARI VA ULARNING ZAMONAVIY XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI.....	1388
Usmonov Shermuhammad Xaydar o'g'li	
JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN YER SOLIG'I MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	1391
Ramazonov Shamil Ulug'bek o'g'li	
IJTIMOIIY TADBIRKORLIK TUSHUNCHASI, MOHIYATI VA AHAMIYATI	1396
Muxsiddinov Mansurjon Maxmudjon o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGIGA MO'ljALLANGAN YERLARNI BOSHQA YER TOIFALARIGA O'TKAZISHNING MIQDORIY VA SIFAT O'ZGARISHLARI	1400
Safayev Sanjarbek Zafarbek o'g'li	
МЕТОДЫ УПРАВЛЕНИЯ ЛИКВИДНОСТЬЮ И ДЕНЕЖНОЙ МАССОЙ В ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА	1405
Холмуродов Жавохир Бахтияр ўғли	
NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR MEHNAT BOZORINING O'ZIGA XOS SEGMENTI SIFATIDA	1410
Sevunov Turg'unbek Radjabovich	
SURXONDARYO VILOYATIDAGI "ZARCHOB" GESNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	1414
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna, Ollanazarov Boburjon Alisher o'g'li	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СЕРВИСНОГО СЕКТОРА УЗБЕКИСТАНА	1418
С.А. Исхакова	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA MA'SULIYATLI ISTE'MOLNING EKONOMETRIK TAHLILI.....	1424
Rashitova Nilufar Xatambayevna	
TO'QIMACHILIK KORXONALARINING EKSPORT VA ICHKI B2B BOZORIDAGI O'RNI.....	1433
Sapayeva Nilufar Qadamboyevna	
AGROSANOAT KLASSTERLARINI SHAKLLANTIRISH VA BOSHQARISH MODELLARI	1441
Yusupova Feruza Yo'ldoshevna	
MINTAQADA ENERGIYA TA'MINOTI TIZIMLARINI OPTIMALLASHTIRISHNING ZAMONAVIY MODELLARI	1449
Masharipov Aziz Axmadjanovich	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY FAOLIYATINI OPTIMALLASHTIRISH ASOSIDA INVESTITSIYA SALOHİYATINI OSHIRISH	1458
Tillayeva Barno Ramizitdinovna	
TO'G'RI SOLIQLARNING XORIJIY TAJRIBASINI QIYOSIY TAHLILI.....	1463
Ergashov Jamshid Ashurovich	
DAVLAT BUDJETIDAN "YASHIL MAKON" UMUMMILLIY LOYIHASINI AMALGA OSHIRISH UCHUN AJRATILADIGAN MABLAG'LARDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI	1471
Umarov Umid Panjiyevich	
XIZMATLAR SOHASIDA INVESTITSION RESURLARNI INNOVATSIYALARGA YO'NALTIRISH MEXANIZMLARI	1476
Ashurova Maftuna Ortiq qizi	
NOBANK KREDIT TASHKIOTLARI LIKVIDLIGINI TA'MINLASHNING DOLZARB MASALALARI.....	1483
Uluxxo'jayeva Umida Abdullayevna	



OLIY TA'LIM MUASSASALARI REYTING TIZIMI: XALQARO TAJRIBA VA MILLIY BOSHQARUV AMALIYOTI	1488
Xudoyqulov Husen Ahadovich	
SOLIQLAR BUDJET DAROMADLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH OMILI	1495
P.SH.Usmonov	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA MOLIYAVIY BOSHQARUV VA INVESTITSIYA JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1499
B.Q. Madartov	
SUG'URTA SOHASIDA RAQAMLASHTIRISH CHORALARINING JORIY ETILISHI VA ERISHILADIGAN NATIJALAR TAHLILI.....	1502
G'oziyeva Aziza Abdusalomovna	
TOVARLAR VA XIZMATLARNI TABAQALASHTIRISH STRATEGIYASINING XUSUSIYATLARI	1507
Sodiqov Miraxror Abbos o'g'li	
DETERMINANTS OF FINANCIAL MARKET PARTICIPANT EFFICIENCY IN AN INNOVATION-DRIVEN ECONOMY.....	1512
Khotamkulova Madina	
EFFICIENCY OF IMPROVING THE IT SERVICES EXPORT	1517
Uzakov Ortik Shaymardanovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ENERGETIKA SOHASIDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR.....	1522
Saidov Mash'al Samadovich	



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ENERGETIKA SOHASIDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR

Saidov Mash'al Samadovich

Shaxrisabz davlat pedagogika instituti rektori professor i.f.d.

ORCID: 0009-0008-7814-3972

Annotatsiya. Mazkur maqolada mamlakat energetika sohasida 2020-2024-yillarda amalga oshirilgan islohotlar mazmun-mohiyati, institutsional o'zgarishlar va ularning iqtisodiy natijalari tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida elektr energiyasi ishlab chiqarish va iste'moli dinamikasi, generatsiya tarkibining o'zgarishi, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushining ortishi, investitsiyalar hajmi hamda tarmoq yo'qotishlarining qisqarishi kabi ko'rsatkichlar jadvallar asosida o'rganilgan. Shuningdek, xorijiy va mahalliy olimlarning nazariy yondashuvlari tanqidiy tahlil qilinib, milliy sharoitda energetika islohotlarini amalga oshirishning o'ziga xos jihatlari asoslab berilgan. Tahlil natijalari energetika sohasidagi islohotlar barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, investitsiya muhitini yaxshilash va "yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayonini jadallashtirishda muhim ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatdi. Shu bilan birga, sohada institutsional takomillashtirish, raqamlashtirish va energiya samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: energetika sohasi, elektr energiyasi, islohotlar, institutsional o'zgarishlar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, investitsiyalar, energiya samaradorligi, tarif siyosati, raqamlashtirish, barqaror rivojlanish.

Abstract. This article analyzes the content and essence of reforms carried out in the country's energy sector in 2020-2024, institutional changes and their economic results. Within the framework of the study, indicators such as dynamics of electricity production and consumption, changes in generation composition, increased share of renewable energy sources, volume of investments and shrinkage of network losses were studied on the basis of tables. Also, the theoretical approaches of foreign and domestic scientists are critically analyzed and based on specific aspects of the implementation of energy reforms in the national context. The results of the analysis showed that energy reforms are instrumental in ensuring sustainable economic growth, improving the investment climate and accelerating the transition to a "green economy". At the same time, proposals and recommendations for institutional improvement, digitization and energy efficiency were developed in the field.

Key words: energy sector, electricity, reform, institutional change, renewable energy sources, investments, energy efficiency, tariff policy, digitalization, sustainable development.

Аннотация. В данной статье анализируется содержание реформ, проведенных в энергетическом секторе страны в 2020-2024 годах, институциональные изменения и их экономические результаты. В рамках исследования на основе таблиц были изучены такие показатели, как динамика производства и потребления электроэнергии, изменение генерации, увеличение доли возобновляемых источников энергии, объем инвестиций, а также сокращение потерь в сети. Также критически проанализированы теоретические подходы зарубежных и отечественных ученых и обоснованы специфические аспекты осуществления энергетической реформы в национальных условиях. Результаты анализа показали, что реформы в энергетическом секторе приобретают все большее значение для обеспечения устойчивого экономического роста, улучшения инвестиционного климата и ускорения процесса перехода к «зеленой экономике». В то же время в отрасли были разработаны предложения и рекомендации по институциональному совершенствованию, цифровизации и повышению энергоэффективности.

Ключевые слова: энергетический сектор, электроэнергетика, реформы, институциональные изменения, возобновляемые источники энергии, инвестиции, энергоэффективность, тарифная политика, цифровизация, устойчивое развитие.

KIRISH

Energetika sohasi har qanday milliy iqtisodiyotning strategik asosini tashkil etadi. Iqtisodiy o'sish sur'atlari, sanoat ishlab chiqarish hajmi, eksport salohiyati va aholi turmush darajasi ko'p jihatdan energiya resurslarining yetariligi, sifatiligi va uzluksizligiga bog'liq. Elektr energiyasi nafaqat yirik sanoat korxonalari, balki kichik biznes



sub'ektlari, xizmat ko'rsatish tarmoqlari, qishloq xo'jaligi va ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari faoliyatining ajralmas sharti hisoblanadi. Shu ma'noda, energetika sohasi iqtisodiy tizimning «qon tomiri» sifatida namoyon bo'ladi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, energetika tarmog'ida chuqur va izchil islohotlar amalga oshirgan davlatlar barqaror iqtisodiy o'sishga erishgan. Ayniqsa, energiya samaradorligini oshirish, bozor mexanizmlarini joriy etish, raqobat muhitini shakllantirish va xususiy investitsiyalarni jalb qilish sohaning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilgan. Shu bilan birga, global miqyosda dekarbonizatsiya jarayonlari, «yashil iqtisodiyot»ga o'tish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish tendensiyalari energetika siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilab bermoqda.

Mamlakatimizda uzoq yillar davomida energetika sohasi asosan markazlashgan boshqaruv tizimi asosida faoliyat yuritib keldi. Bunday tizim ma'lum davrda barqarorlikni ta'minlagan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan texnologik eskirish, moliyaviy samaradorlikning pasayishi va tarmoqda raqobat muhitining yetarli emasligi kabi muammolarni keltirib chiqardi. Generatsiya quvvatlarining muayyan qismi ma'nan va jismonan eskirgani, elektr tarmoqlaridagi texnik yo'qotishlar darajasining yuqoriligi hamda energiya resurslaridan foydalanish samaradorligining pastligi sohani tubdan isloh qilishni taqozo etdi.

So'nggi yillarda energetika sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar strategik maqsadlarga yo'naltirilgan. Ular orasida quyidagilarni alohida ta'kidlash mumkin:

- elektr energiyasi bozorini bosqichma-bosqich liberallashtirish;
- ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash funksiyalarini institutsional jihatdan ajratish;
- davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish;
- qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish;
- tarif siyosatini iqtisodiy asoslangan tamoyillarga o'tkazish;
- energiya tejankor texnologiyalarni joriy etish.

Energetika islohotlarining ahamiyati faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan cheklanmaydi. Ularning ijtimoiy ta'siri ham katta. Aholini sifatli va uzluksiz elektr energiyasi bilan ta'minlash, tarif siyosatini adolatli shakllantirish, kam ta'minlangan qatlamlarni ijtimoiy himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, ekologik barqarorlikni ta'minlash, atmosferaga chiqarilayotgan zararli moddalar hajmini qisqartirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalari ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda mamlakatda demografik o'sish va urbanizatsiya jarayonlari jadal kechmoqda. Yangi turar joy massivlari, ijtimoiy ob'ektlar, sanoat zonalar va infratuzilma loyihalari qurilishi elektr energiyasiga bo'lgan talabni izchil oshirmoqda. Shu bilan birga, aholining turmush darajasi oshgani sari maishiy texnika va elektr uskunalaridan foydalanish hajmi ko'paymoqda. Bu holat energetika tizimiga qo'shimcha yuklama beradi va uning texnik hamda tashkiliy imkoniyatlarini kengaytirishni talab qiladi.

Mavzuning dolzarbligi yana bir jihat bilan belgilanadi: energetika sohasi davlat moliyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Uzoq yillar davomida iqtisodiy asoslanmagan tariflar, yuqori texnologik yo'qotishlar va samarasiz boshqaruv mexanizmlari sohada moliyaviy muammolarni keltirib chiqargan. Natijada budget mablag'lari hisobidan subsidiyalar ajratishga ehtiyoj tug'ilgan. Bozor tamoyillariga asoslangan islohotlar esa sohaning o'z-o'zini moliyalashtirish imkoniyatini kuchaytirish va budget yukini kamaytirishga qaratilgan.

Global miqyosda energiya bozorlaridagi beqarorlik ham mazkur mavzunung dolzarbligini kuchaytirmoqda. Yoqilg'i narxlarining keskin o'zgarishi, ta'minot zanjirlaridagi uzilishlar va geosiyosiy ziddiyatlar milliy energetika tizimini tashqi xatarlarga chidamli qilishni talab etadi. Bu esa energiya manbalarini diversifikatsiya qilish, ichki resurslardan samarali foydalanish va qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish orqali amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, iqlim o'zgarishi sharoitida uglerod chiqindilarini kamaytirish bo'yicha xalqaro majburiyatlar va «yashil iqtisodiyot»ga o'tish strategiyalari energetika siyosatini tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. An'anaviy issiqlik elektr stansiyalarining ulushi yuqori bo'lgan sharoitda ekologik yuklamani kamaytirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Quyosh, shamol va boshqa qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlaydi, balki uzoq muddatli iqtisodiy samara ham beradi.

Mavzuning ijtimoiy ahamiyati ham yuqori. Elektr ta'minotidagi uzilishlar, infratuzilmaning yetarlicha rivojlanmaganligi yoki tariflarning keskin oshishi aholi kayfiyati va turmush darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli energetika sohasidagi islohotlar iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda ijtimoiy adolat va himoya mexanizmlarini ham nazarda tutishi lozim. Kam ta'minlangan aholi qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, manzilli subsidiyalar tizimini takomillashtirish va tarif shakllantirishda shaffoflikni ta'minlash bu borada muhim vazifalar hisoblanadi.

Bundan tashqari, raqamli transformatsiya jarayonlari energetika sohasini zamonaviy texnologiyalar asosida qayta tashkil etishni talab qiladi. Avtomatlashtirilgan hisobga olish tizimlari, «aqli» elektr tarmoqlari, raqamli monitoring va boshqaruv platformalari joriy etilmas ekan, tarmoq samaradorligini tubdan oshirish qiyin bo'ladi. Demak, energetika islohotlari texnologik yangilanish bilan uzviy bog'liq.



Yuqorida qayd etilgan omillar shuni ko'rsatadiki, mamlakat energetika sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar nafaqat tarmoq ichidagi o'zgarish, balki milliy taraqqiyot strategiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. Ularning samaradorligini ilmiy asosda o'rganish, amaliy natijalarini tahlil qilish va kelgusi rivojlanish yo'nalishlarini belgilash bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Energetika sohasini isloh qilish masalasi xalqaro iqtisodiy adabiyotlarda institutsional o'zgarishlar, bozor mexanizmlarini joriy etish va davlat tartibga solish siyosatining samaradorligi nuqtai nazaridan keng o'rganilgan. Xorijiy tadqiqotchilar asosan elektr energetikasini liberallashtirish, xususiylashtirish va raqobat muhitini shakllantirishning iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini tahlil qilgan bo'lsalar, mahalliy olimlar ushbu jarayonlarni milliy sharoitga moslashtirish masalalariga ko'proq e'tibor qaratgan.

Energetika bozorini isloh qilish nazariyasining shakllanishida Paul L. Joskowning ishlari muhim o'rin tutadi. U «Restructuring, Competition and Regulatory Reform in the U.S. Electricity Sector» nomli tadqiqotida elektr energetikasini vertikal integratsiyalangan monopoliya modelidan raqobatbardosh bozor modeliga o'tkazish jarayonini tahlil qiladi.[1] Muallifning fikricha, raqobat ishlab chiqarish segmentida samaradorlikni oshiradi, ammo uzatish va taqsimlash tarmoqlari tabiiy monopoliya xususiyatini saqlab qoladi va ularni kuchli regulatsiya orqali boshqarish talab etiladi. Joskovning xulosalari shuni ko'rsatadiki, islohotlar institutsional tayyorgarliksiz amalga oshirilsa, bozor muvozanati buzilishi mumkin.

Dietrich Helm esa energetika siyosatini kompleks yondashuv asosida ko'rib chiqadi. Uning «Energy, the State, and the Market» asarida davlat va bozor o'rtasidagi muvozanat masalasi markaziy o'rinni egallaydi. Helmning ta'kidlashicha, to'liq liberallashtirish har doim ham ijobiy natija bermaydi, ayniqsa infratuzilmasi yetarli rivojlanmagan mamlakatlarda davlatning strategik ishtiroki saqlanib qolishi zarur.[2] Bu yondashuv rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun dolzarb hisoblanadi.

Daniel Yergin o'zining «The Quest: Energy, Security, and the Remaking of the Modern World» asarida energetik xavfsizlik tushunchasini global siyosiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bog'laydi. U tomonidan, energiya manbalarini diversifikatsiya qilish va milliy xavfsizlik strategiyasini energetika siyosati bilan uyg'unlashtirish zarurligini ilmiy asoslaydi.[3] Biroq, mazkur tadqiqot ko'proq geosiyosiy tahlilga qaratilgan bo'lib, mikroiqtisodiy islohot mexanizmlarini chuqur ochib bermaydi.

Shuningdek, International Energy Agencyning «World Energy Outlook» hisobotlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, dekarbonizatsiya va energiya samaradorligini oshirishning makroiqtisodiy ta'siri tahlil qilinadi.[4] Hisobotlarda empirik ma'lumotlar keng qo'llanilgan bo'lsa-da, ular tavsiyaviy xarakterga ega bo'lib, milliy xususiyatlarni chuqur hisobga olmaydi.

Mahalliy tadqiqotchilar energetika sohasini isloh qilish masalalarini milliy iqtisodiyot sharoitida o'rganishga alohida e'tibor qaratganlar. Masalan, B.Yu.Xodiev iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonida infratuzilma tarmoqlarining, xususan energetika sohasining institutsional islohotlarini ustuvor vazifa sifatida ko'radi.[5] Uning fikricha, tarmoq samaradorligini oshirish uchun korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etish va moliyaviy shaffoflikni ta'minlash zarur.

Sh.Sh.Shodmonov energetika bozorini liberallashtirishda bosqichma-bosqichlik tamoyiliga amal qilish lozimligini ta'kidlaydi. Uning ilmiy ishlarida tarif siyosatini isloh qilishda ijtimoiy himoya mexanizmlarini kuchaytirish masalasi alohida yoritilgan.[6] Muallifning qarashlari mamlakat sharoitida aholining real daromadlari va inflyatsiya omillarini hisobga olish nuqtai nazaridan ahamiyatlidir.

Ayrim mahalliy tadqiqotlarda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilingan. Ularda investitsiya loyihalarining ichki foydalilik normasi (IRR), sof joriy qiymat (NPV) kabi ko'rsatkichlar asosida baholash usullari qo'llanilgan. Biroq ko'p hollarda ushbu tahlillar makroiqtisodiy xavf omillari va bozor infratuzilmasining rivojlanish darajasini yetarli hisobga olmagan.

Xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda, energetika islohotlarini asosan raqobat va bozor samaradorligi nuqtai nazaridan o'rgangan bo'lsalar, mahalliy tadqiqotchilar ko'proq institutsional moslashuv va ijtimoiy barqarorlik masalalariga e'tibor qaratgan.

Shu bilan birga, ikki yo'nalishda ham ayrim cheklovlar mavjud:

-xorijiy tadqiqotlar ko'pincha rivojlangan davlatlar tajribasiga asoslangan bo'lib, ularni to'g'ridan-to'g'ri milliy sharoitga qo'llash mumkin emas.

-mahalliy tadqiqotlarda esa empirik ma'lumotlar va iqtisodiy modellashtirish usullari yetarlicha keng qo'llanilmagan.

Demak, mamlakat energetika sohasidagi islohotlarni chuqur tahlil qilishda xalqaro nazariy yondashuvlar va milliy amaliyotni uyg'unlashtirgan kompleks ilmiy yondashuv talab etiladi.

Energetika sohasini isloh qilish muammolari bo'yicha ilmiy adabiyotlar doirasi juda keng bo'lib, unda bozor tuzilmasi, tartibga solish siyosatining samaradorligi, investitsiya mexanizmlari va «yashil» transformatsiya



masalalari chuqur tahlil qilingan. Quyida mazkur yo'nalishdagi ayrim nufuzli olimlar tadqiqotlari tanqidiy-analitik asosda ko'rib chiqiladi.

Jean Tirole elektr energetikasi kabi tabiiy monopoliya xususiyatiga ega tarmoqlarda davlat tartibga solish mexanizmlarini nazariy jihatdan asoslab bergan. Uning «The Theory of Industrial Organization» va keyingi ishlarida tartibga soluvchi organ bilan kompaniyalar o'rtasidagi axborot asimmetriyasi muammosi ochib berilgan. Tirolning fikricha, samarali regulatsiya rag'batlantiruvchi shartnomalar orqali amalga oshirilishi kerak.[7] Bu yondashuv energetika islohotlarida mustaqil regulator institutini shakllantirishning nazariy asosini beradi. Biroq ushbu model yuqori institutsional salohiyatni talab qiladi, bu esa barcha mamlakatlarda bir xil darajada ta'minlanmagan.

William W. Hogan elektr energiyasi bozorlarida raqobat modelini shakllantirish va ulgurji bozor dizayni bo'yicha ilmiy ishlar olib borgan. Uning tadqiqotlarida lokal marjinal narxlash (LMP) mexanizmining samaradorligi asoslab berilgan. Hoganning ta'kidlashicha, shaffof narx signallari investitsiya qarorlarini to'g'ri shakllantirishga xizmat qiladi.[8] Biroq ushbu mexanizm yuqori darajadagi raqamli infratuzilma va bozor ishtirokchilarining yetarli sonini talab qiladi.

Nicholas Sternning iqlim o'zgarishi iqtisodiyotiga bag'ishlangan «The Economics of Climate Change: The Stern Review» tadqiqoti energetika siyosatiga yangi yondashuvni taklif qildi. U o'zining tadqiqotlarida, uglerod chiqindilarini kamaytirish bo'yicha kechiktirilgan choralar kelajakda ancha yuqori iqtisodiy xarajatlarga olib kelishini ilmiy dalillar bilan ko'rsatdi. Sternning xulosalari qayta tiklanuvchi energiya manbalariga investitsiya kiritishni strategik ustuvor vazifa sifatida belgilashga asos bo'ladi.[9] Biroq ayrim iqtisodchilar uning diskont stavkasini tanlash usulini tanqid qilganlar.

Michael Grubb energetika o'tish (energy transition) jarayonini institutsional va texnologik nuqtai nazardan tahlil qilgan. Uning ishlarida «uch qutbli siyosat modeli» (policy pillars) konsepsiyasi ilgari suriladi: bozor mexanizmlari, innovatsion siyosat va institutsional tartibga solish uyg'unligi.[10] Grubbning yondashuvi kompleks xarakterga ega bo'lsa-da, uni amalga oshirish ko'p vaqt va moliyaviy resurs talab qiladi.

Q.H.Abduraxmonov iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida tarmoqlar o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash masalasini o'rgangan. U energetika tarmog'ini iqtisodiy o'sish drayveri sifatida baholab, investitsiya siyosatini diversifikatsiya qilish zarurligini ta'kidlaydi.[11] Muallifning yondashuvi makroiqtisodiy tahlilga asoslangan bo'lib, tarmoq ichidagi institutsional muammolarni chuqur ochib bermaydi.

A.O'.Vahobov davlat moliyasi va investitsiya siyosatini o'rganish doirasida infratuzilma tarmoqlarini moliyalashtirish mexanizmlarini tahlil qilgan. Uning fikricha, energetika sohasida davlat-xususiy sheriklik modellari budjet yukini kamaytirishning samarali vositasi bo'lishi mumkin.[12] Biroq muallif risolalarida loyihalarning xatarlarni taqsimlash mexanizmi yetarlicha yoritilmagan.

N. G. Karimov qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etishning texnik-iqtisodiy asoslarini tadqiq etgan. U quyosh va shamol energetikasi loyihalarining samaradorligini hisoblashda diskontlash usullari va sezgirlik tahlilini qo'llashni taklif etadi.[13] Bu yondashuv ilmiy jihatdan asosli bo'lsa-da, tadqiqotlarda energiya bozorining institutsional cheklavlari to'liq hisobga olinmagan.

Tadqiqot metodologiyasi Tadqiqot jarayonida O'zbekiston respublikasida energetika sohasida olib borilayotgan islohotlarni qiyosiy tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, ekspert baholash, ilmiy abstraksiyalash, statistik guruxlash, korrelyatsion va regression tahlil va boshqa usullardan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda energetika sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar kompleks va ko'p qirrali xarakterga ega. Ular huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirish, boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va xalqaro investitsiyalarni jalb etish kabi yo'nalishlarni qamrab oladi. Bunday keng ko'lamli o'zgarishlar ilmiy tahlilni, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini baholashni va istiqboldagi rivojlanish strategiyasini asoslashni talab qiladi.

Mamlakat energetika sohasida olib borilayotgan islohotlar mavzusining dolzarbligi, eng avvalo, milliy iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan modernizatsiya qilish jarayonlari bilan bog'liq. Yangi sanoat tarmoqlarini tashkil etish, yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan ishlab chiqarishni rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirish uchun ishonchli energiya ta'minoti asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Energiya resurslari yetarli va barqaror bo'lmasa, investitsiya loyihalarining samaradorligi pasayadi, ishlab chiqarish xarajatlari ortib, mahsulot raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston Respublikasida 2020-2024-yillarda elektr energiyasi ishlab chiqarish va iste'mol hajmi

Yillar	Elektr energiyasi ishlab chiqarish, mlrd kVt. soat	Iste'mol hajmi (mlrd kVt-soat)
2020	66,4	54,8
2021	71,3	58,9



2022	74,3	63,5
2023	76,9	69,2
2024	81,3	74,5

Manba: O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2020-2024-yillarda elektr ishlab chiqarish 66,4 → 81,29 mlrd kVt-soatga o'sgan, ya'ni taxminan +22% atrofida. Bu o'sish energetika quvvatlari kengayishi va talabning oshib borishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, keyingi jadvalda ko'rinib turibdiki, iqtisodiy o'sish sur'atlari (nominal YaIM o'sishi) elektr ishlab chiqarish o'sishidan tezroq bo'lgan.

2020 – 2024-yillarda iste'mol hajmi qariyb 20 mlrd kVt-soatga oshgan. Eng yuqori o'sish 2023 yilda kuzatilgan (9%), bu sanoat va xizmat ko'rsatish sohaslarida faollikning oshishi bilan izohlanadi. Iste'mol o'sishi ishlab chiqarish o'sishi bilan mutanosib ravishda kechgan, ammo ayrim davrlarda talab taklifdan tezroq o'sgani kuzatilgan. Bu holat energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilish va yangi quvvatlarni ishga tushirishni jadallashtirish zarurligini ko'rsatadi (2-jadval).

2-jadval. O'zbekiston Respublikasida 2020-2024 yillarda elektr energiyasi ishlab chiqarish tarkibi

Yillar	Issiqlik stansiyalari (%)	GES (%)	Quyosh/shamol (%)
2020	86	14	0
2021	85	14	1
2022	84	14	2
2023	82	13	5
2024	78	12	10

Manba: O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilda generatsiyaning asosiy qismi (86%) an'anaviy issiqlik stansiyalariga to'g'ri kelgan. 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 78% gacha pasaygan. Quyosh va shamol energetikasining ulushi 0% dan 10% gacha oshgan. Bu islohotlarning strategik yo'nalishi "yashil energetika" tomon ekanini ko'rsatadi. Biroq issiqlik generatsiyasining yuqori ulushi yoqilg'i ta'minoti va ekologik yuklama masalalarini hali ham dolzarbligini saqlab qolayotganini anglatadi (3-jadval).

3-jadval. O'zbekiston Respublikasida 2020-2024-yillarda energetika sohasiga jalb qilingan investitsiyalar

Yillar	Investitsiya hajmi (mlrd AQSh dollari)
2020	1,2
2021	1,8
2022	2,6
2023	3,1
2024	3,8

Manba: O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2020-2024-yillarda investitsiyalar qariyb 3 barobarga oshgan. Asosiy o'sish qayta tiklanuvchi energiya va yangi IES loyihalari hissasiga to'g'ri kelgan. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining kengayishi sohaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirgan. Investitsiyalar o'sishi islohotlarning institutsional jihatdan mustahkamlanayotganini ko'rsatadi (4-jadval).

4-jadval. O'zbekiston Respublikasida 2020-2024-yillarda elektr tarmoqlaridagi umumiy yo'qotishlar darajasi

Yillar	Yo'qotishlar (%)
2020	14,5
2021	13,8
2022	12,9
2023	1,7
2024	

Manba: O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi



Jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 5 yil ichida yo'qotishlar qariyb 3,6 foiz punktga kamaygan. Bu avtomatlashtirilgan hisobga olish tizimlari va infratuzilmani yangilash natijasi sifatida baholanadi. Yo'qotishlarning pasayishi sohaning moliyaviy barqarorligini oshiradi va tarif bosimini yumshatadi.

O'zbekiston Respublikasida 2020-2024-yillarda energetika sohasida olib borilgan islohotlar natijasida quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

- elektr energiyasi ishlab chiqarish va iste'moli barqaror o'sgan.
- qayta tiklanuvchi energiya ulushi sezilarli darajada oshgan.
- investitsiyalar hajmi ko'paygan va xususiy sektor ishtiroki kuchaygan.
- tarmoq yo'qotishlari qisqargan.

Shu bilan birga, issiqlik generatsiyasining yuqori ulushi va talab o'sish sur'atlari islohotlarni izchil davom ettirishni talab etadi. Kelgusida "yashil" energetikani yanada kengaytirish, tarmoq raqamlashuvini chuqurlashtirish va bozor mexanizmlarini to'liq joriy etish ustuvor vazifalardan biri bo'lib qoladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 2020-2024 yillarda mamlakat energetika sohasida amalga oshirilgan islohotlar tarmoqni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuasini tashkil etdi. Elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmining izchil o'sishi, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushining ortishi, investitsiya faolligining kuchayishi va tarmoq yo'qotishlarining qisqarishi islohotlarning amaliy samarasini ko'rsatadi. Bu o'zgarishlar energetika sohasining iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, tahlillar energetika tizimida hali hal etilishi lozim bo'lgan qator tizimli muammolar mavjudligini ham namoyon etdi. Avvalo, iqtisodiyot va aholi ehtiyojlarining o'sishi sharoitida talab va taklif o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Yangi generatsiya quvvatlarini ishga tushirish bilan bir qatorda, mavjud quvvatlarni modernizatsiya qilish, energiya ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va yoqilg'i sarfini kamaytirish muhim ahamiyatga ega.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushining oshishi strategik jihatdan to'g'ri yo'nalish hisoblanadi. Biroq ularning uzluksiz va barqaror ishlashini ta'minlash uchun elektr tarmoqlarini modernizatsiya qilish, energiyani saqlash texnologiyalarini joriy etish va "aqlli tarmoq" elementlarini rivojlantirish talab etiladi. Aks holda, generatsiyadagi mavsumiylik va ob-havoga bog'liqlik tizim samaradorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Institutsional islohotlar nuqtai nazaridan, sohada funksiyalarni ajratish, korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etish va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish muhim natijalar bermoqda. Lekin tarmoqda to'liq raqobat muhitini shakllantirish, mustaqil va shaffof reguliator faoliyatini ta'minlash hamda tarif siyosatini iqtisodiy asoslangan tamoyillarga o'tkazish ishlarini yanada chuqurlashtirish zarur.

Energetika sohasidagi islohotlar ijtimoiy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Tariflarni bosqichma-bosqich liberallashtirish jarayoni aholining kam ta'minlangan qatlamlari uchun manzilli qo'llab-quvvatlash mexanizmlari bilan uyg'unlashtirilishi lozim. Bu ijtimoiy barqarorlikni saqlash va islohotlarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi strategik xulosalarni ilgari surish mumkin:

- energetika sohasidagi islohotlar iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.
- «Yashil energetika»ga o'tish uzoq muddatli barqaror rivojlanishning asosiy yo'nalishi bo'lib qoladi.
- investitsiyalarni jalb qilish va xususiy sektor ishtirokini kengaytirish sohaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi.
- tarmoqni raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish kelgusida samaradorlikni oshirishning asosiy omili bo'ladi.
- islohotlarning muvaffaqiyati institutsional shaffoflik, samarali boshqaruv va ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilinishiga bog'liq.

Umuman olganda, energetika sohasida olib borilayotgan islohotlar milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va uning raqobatbardoshligini oshirish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Mazkur islohotlarni izchil davom ettirish, ularni ilmiy tahlil asosida takomillashtirib borish va xalqaro ilg'or tajribalar bilan uyg'unlashtirish orqali mamlakat energetika tizimini barqaror, samarali va ekologik jihatdan xavfsiz modelga aylantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Joskow, P. L. (2008). Restructuring, Competition and Regulatory Reform in the U.S. Electricity Sector. Journal of Economic Perspectives.
2. Helm, D. (2003). Energy, the State, and the Market. Oxford University Press.
3. Yergin, D. (2011). The Quest: Energy, Security, and the Remaking of the Modern World. Penguin Press.
4. International Energy Agency. (2023). World Energy Outlook. Paris: IEA Publications.
5. Xodiev B. Yu. (2019). Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirish. Toshkent.



6. Shodmonov Sh. Sh. (2020). Bozor iqtisodiyoti sharoitida tarif siyosatini takomillashtirish masalalari. Ilmiy maqolalar to'plami.
7. Tirole, J. (1988). The Theory of Industrial Organization. MIT Press.
8. Hogan, W. W. (1995). Electricity Market Restructuring: Reforms of Reforms. Harvard University.
9. Stern, N. (2006). The Economics of Climate Change: The Stern Review. Cambridge University Press.
10. Grubb, M. (2014). Planetary Economics: Energy, Climate Change and the Three Domains of Sustainable Development. Routledge.
11. Abduraxmonov Q. H. (2018). Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish omillari. Toshkent.
12. Vahobov A. O'. (2017). Davlat moliyasi va investitsiya siyosatining dolzarb masalalari. Toshkent.
13. Karimov N. G. (2021). Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining iqtisodiy samaradorligini baholash usullari. Ilmiy jurnal.
14. Samadovich, Saidov Mashal. "Renewable Energy Sources and Ways of their Implementation in the Republic of Uzbekistan." (2023).
15. Samadovich, Saidov Mashal, and Vafoeva Zarnigor. "Features of Strategic Alliances in the Global Economy. AMERICAN JOURNAL OF ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT ISSN: 2576-5973 Vol. 6, No. 1, 2023." 2023,
16. Samadovich, Saidov Mashal, and Shodmonov Beknur Olimjonovic. "Organization of Control and Evaluation of Effectiveness in International Companies. AMERICAN JOURNAL OF ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT ISSN: 2576-5973 Vol. 6, No. 1, 2023." 2023,
17. Saidov, M. S., and B. Bobamuradov. "Improving government regulation of corporate governance." American Journal of Economics and Business Management 6.1 (2023).
18. Saidov, M. "The concept of energy security and the factors affecting it." Global Technovation 4 th International Multidisciplinary Scientific Conference Hosted From Paris, France. 2022.
19. Саидов, Машъал. «Электр энергетика соҳасини бошқаришда хориж тажрибасидан фойдаланиш йўллари.» Iqtisodiyot va ta'lim 6 (2021): 44-53.
20. Саидов, Машъал Самадович. «Ўзбекистонда табиий монопол ташкилотларни бошқариш ва тартибга солишнинг иқтисодий ва ҳуқуқий жиҳатлари.» Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali 3 (2021).
21. Samadovich, Saidov Mashal. "Muidinov Dilmurod Murodzhonovic.(2023) The Development Strategy of International Companies in Modern Conditions. AMERICAN JOURNAL OF ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT ISSN: 2576-5973 Vol. 6, No. 1, 2023."
22. Mash'al Samadovich, Saidov. "Hasanov Abdumukhtar Azizalievich Institutional Characteristics of the Regulation of Natural Monopoly Fields." International Journal of Business Diplomacy and Economy. ISSN.
23. Samadovich, Saidov Mashal, and Muidinov Dilmurod Murodzhonovich. "The Development Strategy of International Companies in Modern Conditions." AMERICAN JOURNAL OF ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT. ISSN.
24. Samadovich, S. M. "Features of the System of Digital Information and Communication Technologies in the Management of Companies." American Journal of Economics and Business Management 6.1 (2023): 196-202.
25. Саидов, Машъал Самадович. «ЭЛЕКТР ЭНЕРГЕТИКА СОҲСИДА БОШҚАРУВ МЕХАНИЗМИЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ.» Ta'lim fidoyilari 22.7 (2022): 192-196.
26. Саидов, Машъал Самадович. «Глобаллашув шароитида табиий монопол ташкилотлар фаолиятини давлат томонидан тартибга солишнинг институционал хусусиятлари.» Ta'lim fidoyilari 22.7 (2022): 197-203.
27. Саидов, Машъал. «Табиий монополияларни бошқариш ва тартибга солишнинг хориж тажрибаси.» Iqtisodiyot va ta'lim 5 (2021): 71-78.
28. Саидов, Машъал. «Табиий монопол ташкилотларни бошқаришда рақобат муҳитини ривожлантириш.» Iqtisodiyot va ta'lim 4 (2021): 6-12.
29. Khalmuradov, Rustam, Bahodir Xolikov, and Mash'al Saidov. "Education in Uzbekistan: The Interconnection of Traditions and Innovations." ARPHA Proceedings 11 (2026): 1-3.
30. Utarov, Doniyorbek, and Mash'al Saidov. "Qurilish materiallar sanoatida klaster tizimidan foydalanishning xususiyatlari." MUHANDISLIK VA IQTISODIYOT 2.5 (2024).
31. Utarov, Doniyorbek, and Mash'al Saidov. "Monopol korxonalar faoliyatida raqobat muhitini shakllantirish." MUHANDISLIK VA IQTISODIYOT 2.4 (2024).
32. Djuraev, S. M., M. S. Saidov, and N. D. Saidova. "PROBLEMS IN ENSURING FIRE SAFETY AND THE WAYS OF ELIMINATING THEM AND THE PROSPECTS OF ESTABLISHING A FIRE AUDIT INSTITUTE." Worldwide Cross-Disciplinary Research 1.1 (2024).
33. Samadovich, Saidov Mashal. "Priority Directions of Development of Institutional, Regulatory and Legal Systems of Corporate Governance." (2023).
34. Samadovich, Saidov Mashal. "Organization of Production and Management of New Enterprises." (2023).
35. Saidov, Mashal. «ЭЛЕКТР ЭНЕРГЕТИКА ТАРМОҒИНИ БОШҚАРИШДАГИ МУАММОЛАР ВА УЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШ ЙЎЛЛАРИ.» Economics and Innovative Technologies 11.1 (2023): 183-194.
36. Saidov, M. S., and Shafaiziev Sh. "THE MAIN ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF THE PRODUCTION POTENTIAL OF THE ENTERPRISE." Экономика и социум 1-1 (104) (2023): 91-94.
37. Saidov, M. "IMPROVEMENT OF MANAGEMENT IN THE ELECTRICITY SECTOR OF UZBEKISTAN." ББК 74.00 (5Узб) (2022): 207.
38. Saidov, Mashal. «ТАБИЙ МОНОПОЛ ТАШКИЛОТЛАРНИ БОШҚАРИШНИНГ НАЗАРИЙ-УСЛУБИЙ ЖИҲАТЛАРИ.» Архив научных исследований 5.5 (2022).



39. Саидов, Машъал Самадович. «ЭЛЕКТР ЭНЕРГЕТИКА СОҲАСИНИ ТАРТИБГА СОЛИШ ВА БОШҚАРИШДА ОЛИБ БОРИЛАЁТГАН ИСЛОҲОТЛАР.»
40. Саидов, Машъал Самадович. «ЭЛЕКТР ЭНЕРГЕТИКА СОҲАСИДА ТАРИФ ВА НАРХ ШАКЛЛАНИШИДАГИ МУАММОЛАР ВА ОЛИБ БОРИЛАЁТГАН ИСЛОҲОТЛАР.»



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>